

*Usmonova Nilufar*

*O'ZDJTU Roman-german filologiyasi fakulteti*

*Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasida stajyor-o'qituvchisi*

## FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA TOPISHMOQ VA TEZ AYTISHLARNI O'RGANISHNING NAZARIY MASALALARI

**Annotsiya:** Har qanday qadriyat, an'ana millatning hamda kishilik jamiyatining tarixiy rivojlanishi bilan o'ziga xos tarzda uyg'undir. Qadriyat - inson va inson, inson va tabiat, inson va ilohiyot o'rtasidagi munosabatlar, hatti – harakatlar majmuasi sifatida yuzaga keladi, xalq, millat, ijtimoiy guruhlar va alohida kishilar faoliyatining ma'lum bir yo'nalishda bo'lishini ta'minlaydigan ma'naviy – ma'rifiy energiya manbai vazifani bajaradi. Insoniyatning shaxs sifatida shakllanishi va mukammallashuvi u mavjud muhitda amal qiluvchi ko'plab qadriyatlar muhiti bilan belgilanadi.

Fransiya ham O'zbekiston kabi o'zining adabiyoti, mumtoz musiqasi, me'morchiligi bilan mashhur va bularning barchasi ulkan madaniyatni (culture avec majuscule) tashkil qiladi. Kichik madaniyat (culture minuscule) deb ataluvchi yaxshi bir atama ham borki tez aytish, topishmoq, kichik hajviy she'rlar qo'shiqlar, laparlar, maqollar mana shu madaniyat tarkibiga kiradi.

**Kalit so'zlar:** topishmoq, jumboq, metal, misra, janr, vazifa

**Аннотация:** Любая ценность, традиция однозначно совместимы с историческим развитием нации и отдельного общества. Ценность – это взаимоотношения человека и человека, человека и природы, человека и богословия, даже как комплекс действий, информация, обеспечивающая деятельность людей, нации, социальных групп и отдельных лиц в определенном направлении, служит источником духовного развития. энергия просветления. Становление и совершенствование человечества как личности определяется средой многих ценностей, действующих в той среде, в которой оно существует.

Франция, как и Узбекистан, славится своей литературой, классической музыкой и архитектурой, и все это составляет великую культуру (cultural avec majuscule). Есть также хороший термин «микрочультура», который включает в себя быстрые высказывания, загадки, небольшие шуточные стихотворения, песни, шутки и пословицы.

**Ключевые слова:** загадка, головоломка, металл, стих, жанр, задача.

**Topishmoq** — xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimiy va ommaviy janri. Jahondagi barcha xalqlar folklorida – xalq og'zaki ijodiyotida uchraydi. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi madaniyati, urf-odatlarini ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Topishmoqda yechilishi mumkin bo'lgan so'roq majoziy shaklda ifodalanib, uning ma'nosi yashirincha bo'ladi. Topishmoqlarda narsa yoki hodisa boshqa narsa yoki hodisaga o'xshatish, o'zaro qiyoslash, taqqoslash orqali gavdalantiriladi. Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, hatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi. Sandiq to'la pista-bodom,

Ochib ko'r, bo'lsang odam.

Xosiyati ko'p, olam-olam,

Terib ol uni har dam.

**Javob :** Kitob

Je suis grand quand je suis jeune et petit quand je suis vieux. Je rayonne de vie et le vent est mon plus grand ennemi. Que suis-je ? **Réponse: (Une bougie.)**

Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini yaxshilab o'qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

Topishmoqlar ba'zan nasriy, ko'pincha she'riy shaklda, kompozitsion va ritmik jihatdan ixcham, sodda va ohangdor bo'ladi. Masalan:

Bir uy bor:

Ko'r bo'lib kirasan,

Ko'zli bo'lib chiqasan. (Maktab)

Je suis un endroit où il y a beaucoup d'enfants sauf le samedi et le dimanche, j'ai deux syllabes, je commence par le son [é]. (Ecole)

Folklorshunos B. Sarimsoqovning yozishicha, topishmoq "tarixan marosim tarkibida ijro etilgan bo'lib, keyinchalik u o'zining marosimga aloqadorligini yo'qotib, keng ommaviy ijro harakati kasb etgan. ....Tarixan marosimdan holi folklor janrlari juda kam bo'lgan. Topishmoq barcha xalqlar og'zaki ijodining eng sevimli, qiziqarli va o'ziga xos turi hisoblanadi. Topishmoqlarni "topmacha". "jumboq", "matal" deb atashgan. Mumtoz adabiyotlarda ular "chiston" ham deb yuritiladi. Topishmoqmoqlarda yashirin ma'no ko'pincha majoziy shaklda keltiriladi, anig'ini aytadigan bo'lsak, narsa nomi biror-bir qush, hayvon, buyum, o'simlikka qiyoslangan holda bo'ladi. Topishmoqni javobini bolalar topmoqchi bo'lishsa topishmoqda keltirilgan ko'chma bergilar xayolida mantiqan solishtiriladi va uning hayotdagi belgilari to'g'ri kelishiga qarab javobini topadi. Topishmoqlar, avvalo, aqlni charxlaydi, ayniqsa, bolalarni mantiqiy fikrlashga unaydigan tarbiya vositasidir. Ko'ngil ochar o'yin ham hisoblanadi. Topishmoqlar kishining tafakkuri va tasavvurini o'stiradi, aysiqsa, bolani hozirjavoblikka o'rgatadi. Topishmoqlar nasriy va she'riy shaklda ixcham, sodda va ravon, qofiyali uslubda yaratiladi. Ular o'zida yashirin predmetlar miqdorini hisobga olgan holda bir va bir nechta misrali bo'lishi mumkin. Topishmoqlarda narsalarning sifati, belgisi o'xshshligiga qarab bir misrali, ikki misrali, uch misrali va undan ko'p misrali bo'ladi. **Ikki misrali topishmoq : Masalan:**

O'zimizda qator soqchi,

Ko'zimizga qarab boq-chi? (Kiprik)

Ce sont deux éventails qui sont ouverts toute la journée sans arrêt, mais quand vous dormez, ils se ferment et resteront immobiles toute la nuit, qui sont-ils ?

(Les cils.)

**Uch misrali topishmoq :**

Otalari zangi buva,

Onalari yoyma chalpak,

Bolalari shirin – shakar ( Tok , bargi , uzum )

Topishmoq – xalq og'zaki poetik ijodining eng qadimiy va ommaviy janri bo'lib, jahondagi barcha xalqlar folklorida uchraydi. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi, madaniyati, urf – odatlarining ma'lum darajasi o'z ifodasini topadi. Topishmoqda yechilishi mumkin bo'lgan so'roq ma'juziy shaklda ifodalaniib, uning ma'nosi yashirincha bo'ladi. Ushbu xalq og'zaki ijodiyoti janrida narsa yoki hodisa boshqa narsa – buyum yoki hodisaga o'xshatish, o'zaro qiyoslash, taqqolash orqali gavdalanitiriladi. Topishmoqlar ba'zan nasriy ko'pincha she'riy shaklda, kompozitsion va ritmik jihatdan ixcham, sodda va ohangdor bo'ladi.

" Bir parcha patir , olamga tatir "(oy) ,

"Oppoq dasturxon yer yuzini qoplagan " ( qor)

"Une nappe blanche recouvre la terre" (neige)

"Past osmondan qor yog'ar" ( elak) .

"La neige tombe du ciel bas" (tamis).

Ayrim topishmoqlar maqol xusiyatiga ham ega bo'ladi. Masalan :

"Hammaga to'n tikaman, o'zim yalang'och " (igna) .

Topishmoqda metafora, o'xshatish, mubolag'a, sifatlash, takror kabi ifoda vositalari keng foydalanadi.

**Masalan :**

"Ozi bir qarich, soqoli qirq qarich (igna) " .

"Yer tagida oltin qoziq" (sabzi)

"Un tas d'or sous la terre" (carotte)

“Zilzil gilam zil gilam ,zildan ham og’ir gilam”(Yer ) kabi.

**Topishmoq parimik janr sifatida.** Topishmoqlar hajmi va shakliga ko‘ra maqollarga o‘xshaydi. Ba‘zan mazmuniga ko‘ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janrning nomlanishiga e‘tibor bering. “Top” so‘zining talaffuz etilishidanoq o‘yla, axtar, solishtir, izla ma‘nolari yetakchilik qiladi. Unga “ish” qo‘shimchasi qo‘shilganda, vazifa aniqlashadi: “-moq” harakat nomi qo‘shimchasidan keyin **“qo‘lingdan kelsa”, “eplasang”, “uddalay olsang”** tushunchalari ifodalanadi.

Mahmud Koshg‘ariy topishmoqni qadimda “tabzug’ ” deyishganini qayd etadi. “Tabzug‘uq tabuzdim” (Men undan bir topishmoqni so‘radim) jumlasini keltiradi. Bu ma‘lumot topishmoqning tarixi qadimga borib taqalishini ko‘rsatadi. Asta – sekin rivojlanib borayotgan ilmiy va texnologik taraqqiyot yangidan yangi tushunchalarni – topishmoq variantlarini paydo bo‘lishiga olib keldi. Suning uchun aytish mumkinki topishmoqlar ham , tez aytishlar ham tez rivojlanayotgan muhitga, zamonaviy texnologiya tushunchasiga moslashgan bo‘ladi:

**Par exemple :** Les garçons l’utilisent , les filles l’aiment , les parents le détestent. ( **Cellulaire** ) ;

**Masalan:** Bolalar undan foydalanishadi , qizlar uni yaxshiko‘radi , ota- onalar esa uni yomon ko‘radi. ( **uyali telefon** ). Yoki:

Quel animal n’aime pas les ordinateurs à cause de souris? ( **éléphant** )

C’est-à- dire c’est le mot “la souris” , parce que l’ éléphant a peur de la souris. Demak bu topishmoqda ajib bir so‘z o‘yini ketgan.Ya’ni la souris so‘zi ham hayvon ham , ham kompyuter sichqonchasi ma‘nosida keladi.

**Encore une devinette** “ Quel fruit le poisson déteste” – Qaysi mevani baliq yomon ko‘radi. Aslida baliq yomon ko‘rgan so‘z bu “ la pêche” ya’ni baliq ovi , lekin bu so‘z ikki xil ma‘noga ega ya’ni baliq **ovi va shaftoli** . Ajib bir so‘z o‘yini orqali topishmoq ma‘nosi ochib berilgan . Bunday topishmoqlar orqali so‘zlarning bir nechta ma‘nolari aniqlanadi , ya’ni omonimiya hodisasi ham ro‘y beradi.

Odatda, topishmoqlar xalq hayotining hamma sohalarini egallaganligi bilan ham diqqatga sazovor. Maishiy hayotdagi, ijtimoiy muhitdagi munosabatlar topishmoq mavzularida o‘z ifodasini topadi. Ko‘rpa, qulf, qozondan tortib qozi, sudxo‘rlarning kirdikorlarigacha topishmoqlarda aks etishi mumkin. Xalq topishmoqlarini mukammal o‘rgangan Zubayda Husainova 1981 yilda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti tomonidan e‘lon qilingan “Topishmoqlar” kitobidagi matnlarni tartiblashtirishda ularni yirik ikki guruhga ajratadi: **“An’anaviy topishmoqlar”** va **“Yangi topishmoqlar”**. Ma‘lum bo‘ladiki, topishmoqlarda aks etmagan mavzu va sohaning o‘zi yo‘q ekan. Topishmoqlar shaklan nasriy va she‘riy bo‘lishi haqida aytgan edik.

1)Kunduz kuni o‘chirib,

Tunda yoqa olmaysan.(**Quyosh**)

Je ne fais pas de bruit quand je me lève mais je réveille tout le monde.( le soleil )

2)“Soy ichida saksonboy” (burga)

(Je me lève quand je suis content, mais je suis plus petit que le reste, qui suis-je ?) (Le pouce)

3)“Tog‘ ustida o‘rmon bor” (soch)

"Il y a une forêt sur la montagne" (cheveux)

kabi namunalarni nasriy topishmoqlar qatoriga qo‘shamiz.

Mantiqiy tafakkurni o‘stirishda topishmoqlarga javob topish matematik masala, misol yechish bilan teng kuchga ega. Ba‘zi o‘quvchilar topishmoqlarga javob topishni ermak deb biladilar. Afsus, bunday o‘ylashlari noto‘g‘ri. Chunki har bir topishmoq aytilganda o‘quvchi aqlni ishga soladi, o‘ylaydi, fikrlaydi.

**Exemple:** Ikki qo‘shni, ikki do‘st,

Yonma-yon turishadi.

Yig‘lashsa birga yig‘lab,

Baravar kulishadi.(Ko‘z)

Je suis entouré de poils et je suis au milieu. J’ai une ouverture que tu peux voir qui s’ouvre et se ferme ( l’oeil)

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, hatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir.

J'ai des dents mais je ne mange pas. Qui suis-je ? **Réponse** : Un peigne.

Og'zi yo'g'u tishi bor,

Boshimizda ishi bor. **Javob** : Taroq

Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi.

Yelkasi bor, boshi yo'q,

Oyog'i bor, qo'li yo'q. **Javob** : Stul

Je ne peux pas marcher, j'ai pourtant un dos et quatre pieds. Qui suis-je ?

**Réponse** : la chaise

Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini yaxshilab o'qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan hamjavobni topishga harakat qilish kerak.

Topishmoqlarda topilishi lozim bo'lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma'lumot [beriladi](#), ammo bu belgilar istiora san'atidan foydalanilgan holda boshqa narsa bilan bog'lanadi. Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Topishmoq matnida — narsa yoki hodisalarning belgisi, shakli, harakati, holati, vazifasi va boshqa tomonlari berilgan bo'ladi.

Topishmoqlar qadimda jumboq, top-top deb yuritilgan. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o'ziga xos rasm-rusmlari bilan bog'liq bo'ladi.

Charade ya'ni topishmoqli o'yin - o'yin va tovushlar hamohangligini birlashtirgan topishmoq shaklidir. Noaniq va e'tiborni tortuvchi qiziq ma'lumotlardan nimanidir taxmin qilish kerak bo'lgan jumboqli aql o'yini. U maqol, latifa, aforizm va so'zlar o'yini shakllari kabi va boshqa shunga o'xshash birliklar bilan umumiy xususiyatlarga ega.

Topishmoq boshqa birliklardan dialogizmi va sirli ma'noning mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu birliklarning barchasi mashhur, ixcham, xilma-xil mavzuga ega. Bu birliklar ichida maqollar jumboqlarga eng yaqin bo'lib, shuning uchun ham bu ikki janr doimo bir xil to'plamlarda to'plangan, ba'zan ajratilmagan bo'ladi. Ayrim olimlar **paremiologiya** (maqollarni o'rganuvchi yo'nalish) birliklarining kelib chiqishi bir xil, deb hisoblashadi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Maqol va aforizm umumiy murojaat xarakteriga ega. Ikkalasi ham xalq donoligiga tegishli. Anekdot - bu qisqa kulgili hikoya. Biz ertaklarda topishmoqlarning roli haqida ko'p gapiramiz, ular qofiyalanmagan, lekin ularni tavsiflovchi yashirin, sirli ma'noga ega suhbatni o'z ichiga oladi. Aristotelning fikriga ko'ra, topishmoq bizga imkonsiz narsa bilan bog'liq bo'lgan haqiqat haqida gapiradigan yaxshi tuzilgan metaforadir. Topishmoq taxmin qilinadigan narsa yoki hodisaning qisqa, yaxshi qofiyalangan tavsifidan iborat. Unda savol va javob bor. Savol javobni o'z ichiga oladi, biroq bilvosita, yashirin tarzda. Savol taxmin qilinadigan ob'ektning sifatlarini o'z ichiga oladi, ularni taqqoslash va o'xshashliklar orqali taxmin qilish kerak. Shunday qilib, topishmoq - metafora, allegoriya, son nomlari va boshqa shakllar bilan taqdim etiladi.

Gruzin olimi M.Zandukeli fikricha, topishmoq quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: 1. Savolning mavjudligi;

2. Sirli ma'noning mavjudligi;

3. Taxmin qilinadigan narsaning sifatlaridan birini ta'kidlab ishora qilish;

4. Majburiy bo'lmagan metafora mavjudligi.

5. Qofiyaning mavjudligi

Aytganlarni hisobga olib, topishmoqning umumiy ta'rifini berishga harakat qilamiz. Topishmoq - bu yaxshi qofiyalangan, savol bilan ifodalangan sirli ma'noni o'z ichiga olgan kichik adabiy matn bo'lib, unda taxmin qilinadigan ob'ektning sifatleri ko'p hollarda metafora bilan ifodalanadi.

**Exemple :** le frère et la soeur , la mère et le père , l'une après l'autre paire , ils courent , courent , mais ils ont beau faire , ils ne se rattrapent jamais .

**Réponse :** les quatre roués

**Misol:** aka va opa, ona va ota, birin-ketin, ular yugurishadi, yugurishadi, lekin qancha urinmasinlar, hech qachon yetib olishmaydi . **Javob :** to'rt g'ildirak

**Xulosa :** Topishmoq aytish, asosan, bolalarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi tushunchalari va tasavvurlarini, idroki va mulohaza qobiliyatini shakllantirish va kengaytirishda tarbiya vositasi hisoblanadi. Topishmoqdan doston va ertaklarda keng foydalaniladi. "Oshiq Oydin", "Oshiq Alvand", "Xirmon Dali", "Yozi bilan Zebo", "Alpomish" va boshqa dostonlarda, « Podsho bilan donishmand chol » ertagida topishmoq bilan bog'liq masalalar folklorshunoslikda tadqiq etiladi.

Folklor- og'zaki so'z san'atiga asoslangan , o'zida xalqning turmush tarzini aks ettiradigan badiiy ijod maxsulidir. Og'zaki ijod asarlari g'oyaviy – badiiy , ma'rifiy – tarbiyaviy tushunchalarni yoritishga xizmat qiladi. Masalan , maqollar xalq donishmandligini , tajribalari negizida shakllangan topishmoqlar olami , undagi jonli va jonsiz mavjudot hamda narsa-buyumlarni har xil usullar yordamida majoziy tasvirlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

- 1.Abdurahimov M. O'zbek xalq topishmoqlari. T., 2008.b.71.
- 2.Abdullayev J.X. O'zbek topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 1993;
3. Denisova E.A. Rus topishmoqlarining semantik tarkibi. // XII Xalqaro talabalar, aspirantlar va yosh olimlarning "Lomonosov" ilmiy konferentsiyasi, "Filologiya" bo'limi. - M.: MAKS Press 2005. b.208-211
- 4.Galperin I.R. Matn lingvistik tadqiqot obyekti sifatida, 1981.- 139
- 5.Fayard, Paris, 1985, 86-bet
- 6.Husainova Z. So'ngso'z // Topishmoqlar. Ko'p tomlik. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981. – B.337 – 338.
7. Jolles, 1930 . Les cent plus belles devinettes .Gallimard st.129
8. Jo'rayeva M. Topishmoq va marosim // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2009. -№2. – B.19 – 24.
- 9.M.Abdurahimov, O'zbek topishmoqlari ,2008. b.2
10. Qobulova U.S. Metaforik matnda integral va difrensemalar munosabati (O'zbek topishmoqlari misolida). Filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2007;